



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadullojevna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri.....	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	



6-SINF O'QUVCHILARIDA MATN BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI



Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi
Jizzax shahridagi Prezident maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Orcid: 0009-0000-4522-7450

Annotatsiya: Mazkur maqolada 6-sinf o'quvchilarining matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha nazariy va amaliy metodik yondashuvlar tahlil etiladi. Matn bilan ishlashning bosqichli modeli – pretekstual, tekstual va posttekstual faoliyat – o'quvchining tafakkur, tahliliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zbek va chet tillarida matn asosida ishlash metodlari solishtirilib, darsga mos topshiriqlar shaklida amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: matn ustida ishlash, pretekstual bosqich, tekstual tahlil, posttekstual faoliyat, metakognitiv strategiya, tahliliy fikrlash, o'quv strategiyasi, til va tafakkur, kompetensiya, ijodiy yozuv, ona tili darslari, 6-sinf o'quvchilari.

Abstract: This article explores theoretical and practical methodological approaches to developing text analysis skills in 6th grade students. The three-stage model of working with texts – pre-text, text, and post-text activities – is presented as a tool for enhancing students' analytical, cognitive, and creative abilities. The paper also compares text-based instructional methods in Uzbek and foreign languages, and offers task-oriented strategies tailored to students' age and academic needs.

Key words: text analysis, pre-text stage, textual interpretation, post-text activities, metacognitive strategy, analytical thinking, reading strategies, language and thinking, language competence, creative writing, native language instruction, 6th grade students.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические методические подходы к формированию навыков работы с текстом у учащихся 6 класса. Модель поэтапной работы с текстом – предтекстовая, текстовая и посттекстовая деятельность – представлена как средство развития аналитического, мыслительного и творческого потенциала школьников. Также проводится сравнительный анализ методик работы с текстом на узбекском и иностранных языках. Предлагаются задания и упражнения, адаптированные к возрастным и учебным особенностям учащихся.

Ключевые слова: работа с текстом, предтекстовая стадия, текстовый анализ, посттекстовая деятельность, метакогнитивные стратегии, аналитическое мышление, стратегии чтения, язык и мышление, языковая компетенция, творческое письмо, уроки родного языка, ученики 6 класса.

KIRISH

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, xususan, tahliliy fikrlash, matn mazmunini anglash, asosiy g'oyani ajratib olish va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu kompetensiyalar, ayniqsa, o'rta bo'g'in – 6-sinf bosqichida o'quvchining tafakkur jarayoni faol rivojlanayotgan davrda shakllantirilishi zarur. Til va tafakkur o'rtasidagi uzviylikni anglash, tilni nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkurni tashkil etuvchi asosiy mexanizm sifatida qabul qilish zarur. Chunki inson tafakkuri til orqali namoyon bo'ladi, rivojlanadi va takomilla-shadi. Bu esa, o'z navbatida, matn bilan ishlash orqali amalga oshadi.

Matn tahlil qilish, mazmuniy qatlamlarini ochib berish, undagi g'oya va fikrlarning mantiqiy bog'liqligini tushunish, til birliklarini grammatik va semantik jihatdan tahlil qilish o'quvchining nafaqat lingvistik savodxonligini, balki mantiqiy fikrlash darajasini ham oshiradi. 6-sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida ushbu ko'nikmalarni shakllantirish uchun nazariy asoslar va amaliy metodik yondashuvlar bir butun tizimda olib borilishi lozim. Bu jarayonda o'quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish, o'qiganini tushunish va tahlil qilishga yo'naltirilgan topshiriq va mashqlar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, matn ustida ishlash orqali o'quvchilar matn strukturasi, g'oya, mazmun va ifoda vositalarini farqlashni o'rganadilar, bu esa ularning

fikr bayoni va yozma nutqini shakllantirishda poydevor vazifasini bajaradi. Shuningdek, metodik yondashuvlarda o'quvchining individual qobiliyatlari, psixologik yoshi, til tajribasi, faollik darajasi e'tiborga olinishi lozim. Matn ustida ishlash faqat bilim berish emas, balki o'quvchini mulohaza yuritishga, bahslashishga, asosli fikr bildirishga undovchi jarayon bo'lishi kerak. Bu esa, ona tili darslarining faqat til qoidalarini o'rgatishga emas, balki tafakkur va kommunikativ salohiyatni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishini taqozo etadi.

Matn ustida ishlash har bir tilning strukturasi, semantik maydoni va madaniy konteksti asosida yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun quyidagi tillarda alohida metodika shakllangan:

1. **Ingliz tili:** Matn ustida ishlash CEFR darajalariga (A1–C2) asoslangan holda olib boriladi. Skimming, scanning, gist reading (mazmun anglash), inference (xulosa chiqarish) kabi o'qish strategiyalari keng qo'llaniladi. Matn tanlashda real hayotiy kontekstga yaqin, autentik materiallarga tayaniladi.
2. **Nemis tili:** "Lesestrategien" (o'qish strategiyalari) doirasida lingvistik tahlilga asoslangan chuqur grammatika va morfologik ishlanmalar matn bilan birga o'rganiladi. Matn bilan ishlash davomida ko'proq sintaktik va semantik izchillikka urg'u beriladi.
3. **Fransuz tili:** O'qish strategiyalari bilan bir qatorda "compréhension écrite" (yozma tushunish) markaziy metodik komponent hisoblanadi. Matnlar orqali talaffuz, jins va son kelishuvi, konnektorlar (bog'lovchi so'zlar) o'rgatiladi.
4. **Rus tili:** Matn ustida ishlashda leksik-semantik tahlilga katta ahamiyat beriladi. Dialoglar, hikoyalar, publitistik matnlar yordamida ijtimoiy-madaniy komponentlar bilan boyitilgan til materiallari tanlanadi.
5. **Arab tili:** Matn tahlili arab sintaksisi (nahv) va morfologiyasi (sarf) asosida olib boriladi. Matnlar diniy, adabiy yoki ijtimoiy kontekstda tanlanib, tarjima, tahlil va izohlash asosiy usullardan biri hisoblanadi.
6. **Koreys tili:** Matn bilan ishlashda ko'proq topik so'z boyligini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Grammatik struktura va ierarxik talaffuz darajalari (politeness levels) matn asosida o'rganiladi.

Har bir til uchun matn ustida ishlash usullari o'quvchilarning darajasi, til tuzilmasi va madaniy kontekst asosida belgilangan. Shuning uchun o'qituvchi metodikani tanlayotganda til xususiyatlari, o'quvchilar ehtiyoji va CEFRga mos o'quv materiallarini inobatda olishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Matn ustida ishlash – bu o'quvchining matnni anglash, tahlil qilish, unga munosabat bildirish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Alimardonova (2025) ta'kidlaganidek, bu jarayonda metakognitiv strategiyalar, interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanish ayniqsa samaralidir. Til vositasida bilimlar avloddan-avlodga o'tadi, u ommalashadi va insoniyat taraqqiyotini ta'minlaydi (Rustamov, 2025). G'ulomova Mushtariybonu (2024) esa matn bilan ishlashda quyidagi tamoyillarning muhimligini ko'rsatadi: maqsadni aniqlash, qo'llanish doirasini belgilash, strukturani yaratish, tilni to'g'ri ishlatish, matnni tahrir qilish va ko'p yozish. Muallif fikricha, bu elementlar nafaqat matn yaratishda, balki uni o'qib tushunish va fikr bildirishda ham o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantiradi. Ayniqsa sintaktik tuzilma, leksik boyluk va uslubiy vositalar orqali matnga chuqur kirib borish, uni o'zlashtirish, fikr bildirish va baholash imkonini beradi (G'ulomova, 2024).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Matn ustida ishlashni pretekstual, tekstual va posttekstual bosqichlar asosida tashkil etish o'quv jarayonining uzviyligi va maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Ushbu bosqichlarning har biri o'ziga xos didaktik vazifani bajaradi va o'quvchining kognitiv rivojlanishiga xizmat qiladi.

Avvalo, pretekstual bosqich – bu o'quvchining mavjud bilimlarini faollashtirish, mavzu yuzasidan muqaddam shakllangan tasavvurlarini esga tushirish, yangi ma'lumotlarni idrok etishga tayyorlash bosqichidir. Bu bosqich metakognitiv yondashuvga asoslanadi: o'quvchi o'qishdan oldin nimalarni biladi, nima kutmoqda va qanday savollarga javob izlaydi. Pretekstual faoliyat, o'qish motivatsiyasini uyg'otish va kontekstual taxminlar yordamida fikrlashni faollashtirish orqali asosiy matnni chuqur idrok etish uchun zamin yaratadi.

Pretekstual bosqichda, ayniqsa, quyidagi metodlardan foydalanish samaralidir:

- "Klaster usuli", bu orqali o'quvchilar asosiy tushuncha atrofida bog'liq fikr va tushunchalarni jamlaydi;
- "Assotsiatsiya xaritasi" o'quvchiga so'zlar orasidagi ichki bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi;
- "KWL jadvali" (Know–Want–Learn) o'quvchining bilganlarini, bilmog'chi bo'lganlarini va keyinchalik o'rgan-ganlarini tizimli tarzda aks ettiradi;



- Sarlavha yoki rasm asosida savollar tuzish esa taxmin qilish va matn bilan ilgari munosabat o'rnatish imkonini beradi.

Tekstual bosqich – bu o'qish va anglashning markaziy jarayoni bo'lib, o'quvchining matn bilan to'g'ri-dan-to'g'ri ishlashini tashkil etadi. Ushbu bosqichda o'quvchi matndan asosiy g'oya, muhim tafsilotlar, til vositalari, mantiqiy bog'liqlik va muallif pozitsiyasini anglashga intiladi. Bu esa o'qishning kognitiv darajasini chuqurlashtiradi, matnning semantik qatlamlarini ochib beradi, analitik va tushunishga oid fikrlashni shakllantiradi. Tekstual bosqich o'quvchining fikrni qayta ishlash, muayyan xulosalarga kelish va fakt-fikrni ajratish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tekstual bosqichda quyidagi metodlar keng qo'llaniladi:

- “INSERT” usuli (✓ – bilganim, ! – ajablandim, ? – tushunmadim, + – yangi ma'lumot) o'quvchining matn bilan interaktiv aloqasini ta'minlaydi;
- “Venn diagrammasi” orqali ikki matn yoki hodisani solishtirish, umumiy va farqli jihatlarni aniqlash o'rgatiladi;
- “Baliq skeleti” yoki sabab-oqibat chizmasi tahliliy fikrlashni chuqurlashtiradi;
- “Fakt va fikrni ajratish” texnikasi esa tanqidiy fikrlashni faollashtiradi;
- “Savol-javob zanjiri” metodida esa o'quvchilar muayyan mantiqiy ketma-ketlikda savollar asosida matn mazmunini aniqlaydi.

Posttekstual bosqich esa o'quvchining o'qigan matni asosida refleksiya qilish, baholash, umumlashtirish, shaxsiy munosabat bildirish hamda ijodiy yondashuvni namoyon qilishiga imkon yaratadi. Bloom taksonomiyasining yuqori darajadagi ko'nikmalar – tahlil, baho, sintez – aynan shu bosqichda faol qo'llaniladi. O'quvchi matnni shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog'laydi, ijtimoiy-madaniy kontekstga ko'chiradi va mustaqil fikr bildiradi. Bu esa tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bosqichda quyidagi metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi:

- “Ijodiy yozuv”, masalan, “matn davomini yozish”, “alternativ yakun yaratish”, “metaforik sarlavha taklif qilish”;
- “Debat” va “muhokama” metodlari matndagi asosiy fikrlar yuzasidan muloqot qilish imkonini beradi;
- “Fikr jarchisi” metodi har bir o'quvchining matn yuzasidan qisqacha mulohazasini eshitishga imkon beradi;
- “Baholovchi insho” yoki “reflektiv yozuv” o'quvchining shaxsiy pozitsiyasini bayon qilishga yordam beradi;
- “Rubrika asosida baholash” orqali o'quvchi o'z va boshqalarning matnni tushunish darajasini tahlil qiladi.

Shunday qilib, pretekstual – tayyorlov, tekstual – anglash, posttekstual – qo'llash va ijod bosqichlarining uzviylik o'quvchi ongida bilimni shakllantirish va chuqurlashtirish, uni amaliy faoliyatga tatbiq etishning tabiiy, ilmiy asoslangan pedagogik modelidir. Bu yondashuv nafaqat o'qish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchini faol fikrlovchi, anglovchi va ijod qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mohirdev.uz tavsiyalariga ko'ra, har bir darsda aniq natijaga yo'naltirilgan va o'lchab bo'ladigan maqsad belgilanmog'i lozim. Loyiha asosida dars tashkil etish, o'yin elementlaridan foydalanish, sinf tartibini o'quvchilar bilan kelishgan holda yuritish tavsiya etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-matn: Alibek Rustamov

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun juda ko'p narsalarni bilishi kerak. U o'ziga kerakli bilimni ko'rib, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo'lmas, har bir kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy va ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lardi. Tilning birinchi ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi.

2-matn: Nizomiddin Mahmudov

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqlovchisi, kishilar o'rtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot “oldi-berdi”sining timsolsiz ta'minlovchisi. U yo'qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo'lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o'zida xalq, erki o'zida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qayg'usini bir on unutmaydi.

1. Asosiy g'oya kimda qanday?

Quyidagi jadvalni to'ldiring va ikki matnning qanday umumiy va farqli jihatlari borligini og'zaki asoslab bering.

Ko'rsatkichlar	Alibek Rustamov matni	Nizomiddin Mahmudov matni	Izoh (taqqoslash)
Tilning asosiy funksiyasi			
Til bo'lmasa, nima ro'y beradi?			
Til orqali nima saqlanadi/uzatiladi?			
Matnning umumiy kayfiyati			

2. "Fikr zanjiri" texnikasi

Quyidagi fikrlar zanjirini to'ldiring. Har bir o'quvchi oldingisining fikrini davom ettirib yozadi yoki aytadi.

1. Til bo'lmasa, insoniyat...
2. Til yordamida biz...
3. Agar til saqlanmasa...
4. Tilni asrash uchun biz...
5. Til madaniyati deganda men...

3. "Sarlavhani tanla" – Ko'p variantli test

Quyidagi sarlavhalardan qaysi biri Alibek Rustamov matniga, qaysi biri Nizomiddin Mahmudov matniga mos? Belgilang va izoh bering.

Sarlavha	Rustamov	Mahmudov	Izoh
A) Til – taraqqiyot kaliti			
B) Til – millatning suvrati			
C) Bilim – tajriba va til orqali uzatiladi			
D) Til yo'qolsa, jamiyat inqirozga yuz tutadi			

4. "Obraz chiz" – Grafikli topshiriq

Matn asosida "til" so'zining obrazini yarating. Obraz metafora, rasm yoki so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Har bir obraz ostida "Nega bu?" degan savolga izoh yozilsin.

5. "Til yo'q bo'lsa..." – Ijodiy yozuv

Quyidagi iborani davom ettiring:

Agar til bo'lmaganida...

Matn hajmi: 4–5 gap. Usul: metafora, misol yoki voqea asosida.

Ko'rsatkichlar	3 ball (Yuqori)	2 ball (O'rtacha)	1 ball (Past)
Asosiy g'oyani aniqlash	To'g'ri va aniq	Qisman to'g'ri	Xato yoki yo'q
Matnlararo taqqoslash	Dalil va misollar bilan	Faol ishtirok, lekin kam asos	Faol ishtirok yo'q
Til va uslubiy vositalarni tushunish	To'g'ri tahlil	Qisman ko'rsatgan	Noaniq yoki xato
Yozma ifoda va nutq madaniyati	To'g'ri, mantiqli	Mantiqiy, lekin xatolik bor	Tushunarsiz yoki mantiqsiz

XULOSA VA TAKLIFLAR


6-sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning tahliliy fikrlashi, tafakkur madaniyati, til kompetensiyasi va ijodiy ifoda salohiyatini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada tahlil etilganidek, matn bilan ishlash jarayoni uzviy va bosqichma-bosqich tarzda: pretekstual (tayyorlov), tekstual (anglash) va posttekstual (qo'llash va refleksiya) faoliyatlar orqali tashkil etilishi lozim. Har bir bosqichga xos metodik yondashuvlar o'quvchining kognitiv salohiyatini, mustaqil fikrlashni va madaniy-



estetik idrokini shakllantiradi. Nazariy yondashuvlar (Vygotskiy, Bloom, metakognitiv strategiyalar) hamda amaliy tavsiyalar (Alimardonova, G'ulomova) asosida ishlab chiqilgan usullar, ayniqsa, darsda qo'llanilayotgan topshiriqlar, testlar, grafikalar va ijodiy mashqlar orqali samaradorlikni oshiradi. Matn ustida ishlash metodikasini turli tillarda – ona tili va xorijiy tillar kontekstida – solishtirgan holda tahlil qilish, metodik moslashuv va integratsiyalashuvga imkon beradi. Shunday qilib, matn asosidagi bosqichli yondashuv orqali o'quvchilar o'qiganini tushunish bilan cheklanmay, uni tahlil qilish, baholash, hayotiy kontekstda qo'llash va ijodiy tarzda qayta ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuviga to'la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimardonova M.Z. 6-sinf o'quvchilarining o'qiganini tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda interfaol metodlar. Pedagog Int. Res. Journal, 2025.
2. Rustamov A. Tilning jamiyatdagi o'rni. Matn, 2025.
3. G'ulomova M.M. Ona tili darslarida matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13933079>
4. Mohirdev.uz. Darsni to'g'ri tashkil etish – ochiq dars, 2024. <https://mohirdev.uz/blog/darsni-togri-tashkillashtirish-ochiq-dars>
5. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard Univ. Press, 1978.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.